

**BUXORO MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.03/27.09.2024.T.101.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**BUXORO DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI**

**SAYLIYEV FARID OLTIBOY O'G'LI**

**PAST TEZLIKLI ENERGIYA OQIMLARIDA SAMARALI ISHLOVCHI  
MUQOBIL ENERGIYA MANBAI GENERATORI KONSTRUKSIYASINI  
TAKOMILLASHTIRISH**

**05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi  
energiya qurilmalari**

**TEXNIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Buxoro – 2025**

**Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии  
(PhD) по техническим наукам**

**Contents of the dissertation abstract of doctor of philosophy  
(PhD) on technical sciences**

**Sayliyev Farid Oltiboy o'g'li**

Past tezlikli energiya oqimlarida samarali ishlovchi muqobil energiya manbai generatori  
konstruksiyasini takomillashtirish..... 3

**Сайлиев Фарид Олтибой ўғли**

Усовершенствование конструкции эффективного генератора альтернативного  
источника энергии в низкоскоростных потоках энергии.....25

**Sayliyev Farid Oltiboy Ogli**

Improvement of the design of an efficient generator of an alternative energy source in  
low-speed energy flows.....49

**E'lon qilingan ishlar ro'yxati**

Список опубликованных работ

List of published works .....53

**BUXORO MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.03/27.09.2024.T.101.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**BUXORO DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI**

**SAYLIYEV FARID OLTIBOY O'G'LI**

**PAST TEZLIKLI ENERGIYA OQIMLARIDA SAMARALI ISHLOVCHI  
MUQOBIL ENERGIYA MANBAI GENERATORI KONSTRUKSIYASINI  
TAKOMILLASHTIRISH**

**05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari  
asosidagi energiya qurilmalari**

**TEXNIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Buxoro – 2025**

**Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.2.PhD/T2902 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Buxoro davlat texnika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida ([www.bstu.uz](http://www.bstu.uz)) va «Ziyonet» Axborot ta'lim portalida ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Sadullayev Nasullo Nematovich**  
texnika fanlar doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Pirmatov Nurali Berdiyovich**  
texnika fanlar doktori, professor

**Samiyev Kamoliddin A'zamovich**  
texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori,  
professor

**Yetakchi tashkilot:**

**O'zbekiston Respublikasi Fanlar  
akademiyasi Energetika muammolari  
instituti**

Dissertatsiya himoyasi Buxoro muhandislik-texnologiya instituti huzuridagi PhD.03/27.09.2024.T.101.05 raqamli Ilmiy kengashning 2025 yil "08" 29 soat 10<sup>00</sup> dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 200100, Buxoro shahri Qayum Murtazoyev ko'chasi 15-uy. Tel/faks. (65) 223-78-84/ (65) 223 78 84; e-mail: [bstu\\_info@edu.uz](mailto:bstu_info@edu.uz) Buxoro davlat texnika universiteti majlislar zali.

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat texnika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№ 1 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 200100, Buxoro shahri Qayum Murtazoyev ko'chasi 15-uy. Buxoro davlat texnika universiteti. Tel/faks: (65) 223-78-84/ (65) 223 78 84.

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil "08" 14 kuni tarqatildi.  
(2025 yil "08" 14 dagi № 315 raqamli reestr bayonnomasi).



**A.I. Qarshiboyev**  
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy  
kengash raisi v.b., t.f.d., professor

**U.K. Mirxonov**  
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash  
ilmiy kotibi, t.f.f.d., (PhD), dotsent

**K.A. Samiyev**  
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash  
qoshidagi ilmiy seminar raisi,  
t.f.d., professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiya annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati.** Jahonda elektr energiya ishlab chiqarishni rivojlantirishning zamonaviy talabi iste'molchilarni elektr energiya bilan uzluksiz ta'minlash ishonchligini oshirish, tizimda elektr energiya muvozanatini saqlashga erishish uchun elektr energiya ishlab chiqarish sohasini rivojlantirishda, elektr energiya ishlab chiqaruvchi generatorlarga alohida ahamiyat berilmoqda. Past potentsialli suv va shamol oqimlardan elektr energiyasi ishlab chiqarishda, ayniqsa texnik ko'rsatkichlari yaxshilangan elektr generatorlardan foydalanish katta ahamiyat kasb etmoqda. Hozirgi kunda rivojlangan mamlakatlarda «...past tezlikli energiya oqimlaridan<sup>1</sup> elektr energiya ishlab chiqaruvchi radial o'qli sinxron generatorlar bo'yicha keng qamrovli tadqiqot ishlari olib borilmoqda<sup>2</sup>». Bu borada jumladan, elektr energiya ishlab chiqaruvchi radial o'qli sinxron generatorlarning yangi konstruksiyalarini ishlab chiqishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Jahonda suv va shamol energiyasidan samarali foydalanib elektr energiyani ishlab chiqarish bo'yicha, xususan turbinalar orqali ishlab chiqariladigan mexanik quvvat qiymatini yaxshilash, ishga tushirish momentini oshirish, generatorlar orqali kichik aylanish tezliklarida elektr energiyasi ishlab chiqarish unumdorligini oshirish, tizimda aksial va radial oqimli turli konstruksiyali generatorlarni qo'llashga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar olib borilmoq. Ushbu tadqiqot ishlarida, elektr generator orqali past bosimli va kichik tezlikli suv hamda shamol oqimlarida elektr energiyasini ishlab chiqarishda kichik nominal tezligiga ega elektr generatorni takomillashtirish ustuvor hisoblanmoqda. Shu bilan birga, suv va shamol oqimlaridan elektr energiyasi ishlab chiqarishda generatorlarning nominal tezligi yuqoriligi, uyg'otish chulg'ami uchun o'zgarish tok talab qilinishi va yuklamaga mos ravishda uyg'otish chulg'ami boshqarilishi, tizimning samarali ishlashi uchun muammolar keltirib chiqarmoqda. Bu borada, generatorni turbinaga to'g'ridan-to'g'ri ulash orqali, hozirgi kunda aylanish tezligini oshirish uchun foydalaniladigan reduktorlar, rementli va tishli uzatmalarga ehtiyojni kamayishi natijasida, tizimning tannarxini pasaytirish hamda ishonchligini oshirish dolzarb vazifalardan biri hisoblanmoqda.

Respublikamizda iqtisodiyotning asosiy tarmoqlaridan biri hisoblangan energetika sohasidagi kuchsiz energiya oqimlarida qo'llashga mo'ljallangan radial o'qli sinxron generatorlarda mexanik harakatning simmetrikligini ta'minlash va elektr energiya ishlab chiqarish samaradorligini oshirish bo'yicha tadqiqotlar va joriy qilish chora-tadbirlari amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasining 2019 yil 21 maydagi O'RQ-539-son "Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish to'g'risida"gi qonunida «...qayta tiklanuvchi energiya manbalari qurilmalarining energiya jihatdan samaradorligini oshirishni, ularning ishlab chiqarilishini kengaytirishni va mahalliy lashtirishni rag'batlantirish...» bo'yicha vazifalari belgilangan. Mazkur vazifani amalga oshirishda, jumladan, radial o'qli

---

<sup>1</sup> <https://dewesoft.com/blog/energy-flow-analysis-of-electric-vehicle>

<sup>2</sup> <https://www.greenspur.co.uk/axial-flux-technology/discover-the-power-of-axial-flux-generators/#:~:text=One%20of%20the%20key%20advantages,greater%20efficiency%20and%20energy%20output.>

generatorning nosimmetrik ish rejimlarini bartaraf etish, elektr energiyani iste'molchilarga yetkazib berishning uzluksizligini, elektr energiyaning sifatini, tizimning turg'unligini ta'minlash muhim vazifalardan hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 16 fevraldagi PQ-57-son «2023-yilda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini va energiya tejoychi texnologiyalarni joriy etishni jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida» gi, 2020 yil 10 iyuldagi PQ-4779-son "Iqtisodiyotning energiya samaradorligini oshirish va mavjud resurslarni jalb etish orqali iqtisodiyot tarmoqlarining yoqilg'i-energetika mahsulotlariga qaramligini kamaytirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi Qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublikada fan va texnologiyalarni rivojlantirish ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Dissertatsiya ishi bo'yicha tadqiqotlar fan va texnologiyalar rivojlanishining IV "Qayta tiklanuvchan energiya manbalaridan foydalanish usullarini rivojlantirish, nanotexnologiyalar, fotonika va boshqa zamonaviy ilg'or texnologiyalar asosida qurilmalar va texnologiyalarni yaratish" ustuvor yo'nalishiga mos keladi.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Shamol va suv oqimlarida samarador ishlovchi elektr generatorlar konstruksiyasini takomillashtirish bo'yicha xorijda Tomasz Wegiel, Natalia Radwan-Pragłowska, Julian David. Rahimi Namaghi, Chimento, Mehmet Recep Minaz, Jong-Suk, Tarimer İlhan, Julian Booker, Ahmadreza Vassel-Be-Hagh kabi olimlar shug'ullanishgan.

Respublikamizning turli hududlaridagi shamol va suv oqimlaridan samarali foydalanib elektr energiyasi ishlab chiqarish bo'yicha tadqiqotlar R.A. Zahidov, K.R. Allaev, R.R. Avezov, O'.A. Tadjiev, B. Urishev, N.N. Sadullayev, D. Qodirov, A.B. Safarov, SH.N. Nematov, R.A. Mamedov, F.F. Muzaffarov va boshqalar tomonidan bajarilgan.

Mazkur tadqiqotlar natijasida ushbu yo'nalishda amaliy natijalarga erishilgan bo'lsada, past bosimli suv va kichik tezlikli shamol oqimlarida samarali ishlovchi generatorni loyihalashda, optimal konstruktiv o'lchamlarini aniqlash, texnik iqtisodiy ko'rsatkichlarini baholash yetarli darajada o'rganilmagan hamda rotor va statori bir-biriga qarama-qarshi aylanuvchi elektr generator uchun mexanik energiyani taqsimlash usullari va ushbu qurilmalarni elektr generatorlarga joriy etish bo'yicha tadqiqotlar yetarlicha o'tkazilmagan.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya ishi bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Buxoro muhandislik-texnologiya institutining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq ILM 20215001 "Kichik quvvatli iste'molchilar uchun O'zbekiston iqlimiy sharoitlarida samarador ishlovchi shamol energetik qurilmasini yaratish" (2021–2023-yillar) mavzusidagi innovatsion loyiha doirasida bajarildi.

**Tadqiqot maqsadi** past tezlikli suv va shamol oqimlarida elektr energiyasini ishlab chiqarish samaradorligini, generator konstruksiyasini takomillashtirish orqali oshirishdan iborat.

### **Tadqiqot vazifalari:**

past bosimli suv va kichik tezlikli shamol oqimlaridan foydalanib elektr energiyasini generatsiyalashda turbina va ko'p qutbli elektr generatorlardan foydalanish istiqbollarini baholash;

bir-biriga qarama-qarshi aylanuvchi elektr generator rotor va statoriga aylanish tezligini bir tekisda taqsimlovchi qurilmani joriy etish orqali elektr generatorni takomillashtirish;

rotori va statori bir-biriga qarama-qarshi aylanuvchi ko'p qutbli elektr generatorlarda eksperimental tadqiqotlarni o'tkazish uchun tajriba sinov qurilmasini yaratish;

past bosimli suv va kichik tezlikli shamol oqimlarida elektr energiyasini generatsiyalovchi rotor va stator tezligi rostlanadigan elektr generatorni qo'llashning texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlarini baholash;

eksperimental tadqiqotlar natijalari asosida, rotor va statori bir-biriga qarama-qarshi aylanuvchi elektr generatorni chiqish parametrlarini hisoblovchi empirik tenglama ishlab chiqish.

**Tadqiqot obyekti** sifatida past tezlikli oqimlarda ishlovchi vertikal o'qli radial oqimli o'zgaruvchan tok generatori va uni tezligini rostlash qurilmasi.

**Tadqiqot predmeti** past tezlikli suv va shamol oqimlarda ishlovchi vertikal o'qli radial oqimli o'zgaruvchan tok generatori konstruksiyasini takomillashtirish orqali samaradorligini va chiqish kuchlanishi sifatini oshirish hisoblanadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot jarayonida radial o'qli doimiy magnitli sinxron generatorni matematik modellashtirish tajriba natijalarini statistik qayta ishlash, generatorning imitatsion modelini yaratish, eksperimentni rejalashtirish va instrumental o'lchash usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

ilk marotaba hozirgi kundagi mavjud suv va shamol turbinalari uchun, hosil bo'ladigan aylanma harakatni, elektr generator qarama-qarshi harakatida rotor va stator aylanish tezliklarini bir qiymatda bo'lishini ta'minlash orqali, generator chiqishidagi kuchlanish sifatini barqaror saqlashga mo'ljallangan rostlovchi qurilma ishlab chiqilgan (FAP 2657, 2025 y);

past bosimli suv va kichik tezlikli shamol oqimlarida samarali ishlashni ta'minlovchi rotor va statori bir-biriga qarama qarshi aylanuvchi ko'p qutbli elektr generatorning maqbul konstruktiv o'lchamlarini generator chiqish kuchlanishiga ta'sir etuvchi omillarni maksimal qamrab olgan holda, konstruksiyasi ishlab chiqilgan;

rotori va statori bir-biriga qarama-qarshi aylanuvchi ko'p qutbli elektr generatorning chiqish kuchlanishi va foydali ish koeffitsiyentini konstruktiv parametrlariga bog'lagan holda aniqlovchi matematik ifoda hamda eksperimental tadqiqotlar natijalari asosida, elektr generatorni chiqish parametrlarini hisoblovchi empirik tenglama yaratilgan;

generatorni barqaror ish rejimida maksimal samaradorlik bilan ishlashini ta'minlovchi rotor va statori qarama-qarshi aylanuvchi generatorni harakatga keltiruvchi turbinalar diametrlarining optimal nisbatlari, radial generatorlar uchun  $S_{rs}/S_{rr}=1.16$  va aksial generatorlar uchun  $S_{as}/S_{ar}=1.56$  ekanligi aniqlangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

past bosimli suv va kichik tezlikli shamol oqimlarida elektr energiyasini ishlab chiqarish uchun, samarador elektr generator tanlash va uning tanlangan quvvat asosida konstruktiv o'lovlarini aniqlash uslubiyoti yaratilgan;

bir-biriga qarama-qarshi aylanuvchi elektr generator rotor va statoriga mexanik energiyani bir tekisda taqsimlovchi qurilma ishlab chiqish orqali suv va shamol oqimlarida ishlovchi standart turbinalarda qo'llash imkoniyati yaratilgan;

qurilmaning konstruktiv o'lchamlar asosida rotor va stator bir-biriga qarama-qarshi aylanuvchi elektr generator samaradorligini baholash uslubiyoti yaratilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Tadqiqot natijalarining ishonchliligi izlanishlarning zamonaviy usul va o'lchash vositalaridan foydalangan holda o'tkazilganligi, tajriba natijalarini tekshirishda ishonchli hamda sinalgan modellashtirish usullarining qo'llanilganligi, tajribalarning tabiiy sharoitda o'tkazilganligi, tadqiqotlar natijasida ishlab chiqilgan rotor va stator bir-biriga qarama-qarshi aylanuvchi elektr generator sinov natijalarining amaliyotga joriy etilganligi bilan asoslanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy-amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati past bosimli suv va kichik tezlikli shamol oqimlarida samarali ishlovchi elektr generator turini va konstruksiyasini to'g'ri tanlash hamda ma'lum o'lchamli rotor va stator bir-biriga qarama-qarshi aylanuvchi elektr generator texnik ko'rsatkichlari hamda samaradorligini baholash uslubiyoti, bir-biriga qarama-qarshi aylanuvchi elektr generator rotor va statoriga aylanish tezligini bir xilligini ta'minlovchi qurilmani loyihalash va ushbu qurilmani elektr generatorga joriy etish imkoniyatlarini o'rganish bilan izohlanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati past oqimli suv va kichik tezlikli shamol oqimlaridan samarali foydalanib, elektr energiyasi ishlab chiqarish orqali chekka hududlardagi aholi turmush darajasini yaxshilash hamda elektr ta'minotida ekologik toza energiya manbalar ulushini oshirish bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Past bosimli suv va kichik tezlikli shamol oqimlarida samarali ishlovchi elektr generator konstruksiyasini takomillashtirish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

past tezlikda ishlovchi aksial generator konstruksiyasi uchun O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi Intellektual mulk agentligining foydali modeliga patent olingan (№ FAP2657, 2025-yil 3-fevral). Natijada, 20 kW quvvatli qurilmaning past bosimli suv va kichik tezlikli shamol oqimlarida standart qurilmaga nisbatan yiliga 12336,63 kWh ortiqcha elektr energiyasi ishlab chiqarishga hamda 21,62 tonnadan ortiq (CO<sub>2</sub>) gazini atmosferaga chiqarib yuborilishining oldini olishga erishilgan;

radial o'qli generator qurilmasi Buxoro viloyati Qorako'l tumanidagi "Yangiboy Ochil g'allakor" va "Kumush tola paxtakor" MChJlarda joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Energetika vazirligining 2025-yil 26-fevraldagi № 04-13-909 -sonli ma'lumotnomasi). Natijada, ichki yonuv generatoriga nisbatan yillik 81 million so'm iqtisodiy samaradorlikka erishilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 6 ta ilmiy-amaliy anjumanlarda, jumladan 3 ta xalqaro va 3 ta respublika anjumanlarida muhokamadan o'tgan.


**Tadqiqot natijalarning e'lon qilinishi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 18 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining falsafa doktori (PhD) dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar 7 ta maqola, jumladan 3 tasi respublika va 4 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan hamda O'zbekiston Respublikasi Intellektual mulk agentligi tomonidan EHM dasturiga mualliflik guvohnomasi va foydali model uchun patent (FAP 2657) olingan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, to'rtta bob, umumiy xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya hajmi 119 betni tashkil etadi.

### DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida yechilayotgan muammoning dolzarbligi va dissertatsiya mavzusining zaruriyati asoslangan, tadqiqotning maqsad va vazifalari hamda respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy tadqiqotlar sharhi keltirilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, ilmiy ishlarni chop etganlik haqida ma'lumotlar va dissertatsiyaning tuzilishi keltirilgan.


Dissertatsiyaning **“Past bosimli suv va kichik tezlikli shamol oqimlaridan samarali foydalanishning ahamiyati va istiqbollari”** deb nomlangan birinchi bobida, jahonda shamol va suv energetikasidan foydalanib elektr energiyasi generatsiyalashdagi muammolar, kamchiliklar va istiqbollari o'rganilgan. Past bosimli suv va kichik tezlikli shamol oqimlaridan elektr energiyasi ishlab chiqarishda foydalaniladigan generatorlar bo'yicha xorijiy olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqot natijalari tahlil qilingan va ular erishgan yutuq hamda kamchiliklar aniqlangan. Past potentsialli suv va shamol oqimlarida samarali mexanik energiya ishlab chiqaruvchi turbinalar tahlili olib borilgan. Kichik aylanish tezliklarida samarali ishlovchi elektr generatorlarning turlari, konstruktiv tuzilishlari, texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlari, afzallik va kamchiliklari tadqiq qilingan. Bundan tashqari, O'zbekistonda past tezlikli shamol va past bosimli suv oqimlari salohiyati bo'yicha respublika olimlari tomonidan olib borilgan tadqiqot ishlari tahlil qilinib respublikamiz hududlarida past bosimli suv va kichik tezlikli shamol oqimlaridan foydalanish imkoniyati mavjudligi xulosa qilingan.




**1-rasm. Sinxron elektr generatorning konstruktiv tuzilishiga ko‘ra tasniflanishi a) Aksial oqimli SG , b) Radial oqimli SG , c) gibrid aksial-radial oqimli SG.**

Dissertatsiyaning “**Past potentsiilli suv va shamol oqimlarida samarali ishlovchi elektr generatorning parametrlarini hisoblash**” deb nomlangan ikkinchi bobida, past bosimli suv oqimlarida samarali ishlovchi turbinalar, ularda mexanik energiya ishlab chiqarishda ta’sir etuvchi omillar tahlil qilinib, chiqish parametrlarni aniqlovchi nazariy hisoblashlar keltirilgan. Kichik tezlikli shamol oqimlarida samarali ishlovchi turli konstruksiyali shamol turbinalari ularning texnik iqtisodiy ko‘rsatkichlari va ulardan samarali foydalanish imkoniyatlari o‘rganilib mexanik energiya ishlab chiqarish imkoniyatini ifodalovchi matematik ifodalari keltirilgan.

Hozirgi kunda dunyoda keng foydalanib kelinayotgan uyg‘otish chulg‘amli va o‘zgarimas magnitli sinxron generatorlardan past potentsiilli suv va shamol energiyasidan foydalanishdagi ahamiyati o‘rganilgan hamda ularda elektr energiyasini ishlab chiqarish imkoniyatlarini va generatsiya jarayonida yuzaga keladigan isroflarni baholovchi matematik ifodalar keltirildi. Keltirilgan matematik ifodalar yordamida mexanik energiyaning elektr energiyasiga generatsiyalanishida samaradorligini baholash va konstruktiv o‘lchamlarini aniqlash imkoniyati mavjud.



**2-rasm. Generator qirqimida magnit maydon vektorlarining yo‘nalishi.**



**3-rasm. Generator qirqimida magnit induksiyaning taqsimlanishi.**

Kichik aylanish tezliklarida ishlovchi elektr generator samaradorligini baholash, magnit induksiya taqsimlashini, elektr yurituvchi kuchni havo oralig‘ida hosil bo‘lishini vizual ko‘rish va loyihalash jarayonini osonlashtirish maqsadida, hozirgi kunda dunyoda elektr mashinalarni loyihalashda keng qo‘llaniladigan ANSYS Maxwell dasturidan foydalanilgan (2,3-rasm). 3-rasmda generator qirqimida magnit induksiya taqsimlanishi berilgan. Bu yerda qizil rangda berilgan yuzalar magnit maydon induksiya eng zich joylashgan yuzalar hisoblansa, ko‘k rangda berilgan yuzalar eng kichik qiymatga ega. Kompyuter modelini qurish orqali ko‘p qutbli, 500 W li elektr generator quvvat ishlab chiqarish unumdorligini oshirish bo‘yicha imkoniyatlarini baholash imkoniyati va loyihalash xatoliklarini vizual ko‘rish imkoniyati yaratildi.

Dissertatsiya ishining “**Past past tezlikli energiya oqimlarida samarali ishlovchi elektr generator konstruksiyasini takomillashtirish**” deb nomlangan uchinchi bobida, past potentsiilli suv va shamol oqimlarida rotori va statori bir-biriga

qarama-qarshi aylanuvchi elektr generatordan foydalanish samaradorligi baholashning nazariy asoslari keltirilgan.

Hozirgi kunda elektr generatorlar nominal tezligini baholashda stator ham aylanma harakatda bo'lsa va aylanish yo'nalishi rotor yo'nalishi bilan mos bo'lsa  $\omega_{stator}$  musbat ishora bilan ifodalanadi. Agar Stator aylanish yo'nalishi rotor aylanish yo'nalishiga teskari yo'nalishda harakatlansa, Stator manfiy ishora bilan ifodalanadi. Shunda tenglamaga quyidagicha ko'rinishga keladi (1-ifoda).

$$\omega_{nom} = \omega_{rotor} - (-\omega_{stator}) = \omega_{rotor} + \omega_{stator} = 2 \cdot \omega_{rotor}; \quad (1)$$

Standart generatorlar uchun rotor va stator bir biriga qarama-qarshi harakatida aylanishlar tezligi bir biriga teng deb qabul qilingan. Ammo amaliyotda generator shakli va massasida farq qilishi sababli ulardagi aylanish tezliklarida ham nomutanosibliklar aniqlandi. Shu sababli ham rotor va statori bir-biriga qarama-qarshi aylanuvchi elektr generatorlarda chiqish kuchlanishining nazariy va haqiqiy qiymatlari orasida xatoliklar aniqlandi. Chiqish kuchlanishini yanada aniq baholash maqsadida, nominal tezlikga keltirish koeffitsiyenti  $K_{nom}$  aniqlandi. Ushbu ko'rsatkich olib borilgan tajribalar asosida, elektr generator rotor va statorini qarama-qarshi aylantirishdagi chiqish kuchlanishini, birinchi holatda generator rotorini  $K_{nom1}$  va ikkinchi holatda statorini  $K_{nom2}$  aylantirish orqali hosil bo'lgan kuchlanishga nisbatlarining o'rtacha qiymati bilan aniqlandi.

Nominal tezlikga keltirish koeffitsiyenti quyidagicha aniqlanadi:

$$K_{nom1} = \frac{U_{s.r.}}{U_r}; \quad (2) \quad K_{nom2} = \frac{U_{s.r.}}{U_s} \quad (3)$$

**1-Jadval.**

**Turli aylanish tezliklarida Nominal tezlikga keltirish koeffitsiyentining qiymatlari**


Aylanish tezliklari	89	126	152	201	250
Rotori va statorini qarama-qarshi aylantirishdagi chiqish kuchlanishini, faqat rotorni aylantirish orqali hosil bo'lgan kuchlanishga nisbatlari ( $K_{nom1}$ )	1.93	1.95	1.92	1.94	1.93
$K_{nom1.ort}$ – $K_{nom1}$ ning o'rtacha qiymati	1.93				
Rotori va statorini qarama-qarshi aylantirishdagi chiqish kuchlanishini, faqat statorni aylantirish orqali hosil bo'lgan kuchlanishga nisbatlari ( $K_{nom2}$ )	2.214	2.15	2.25	2.05	2.023
$K_{nom2.ort}$ – $K_{nom2}$ ning o'rtacha qiymati	2.13				

Elektr generator rotor va statorini qarama-qarshi aylantirishdagi nominal tezlik:

$$\omega_n = K_{nom1.ort} \cdot \omega_{n.rotor}, \quad \omega_n = K_{nom2.ort} \cdot \omega_{n.stator} \quad (4)$$

Generator rotor va stator bir biriga qarama qarshi harakatlengandagi chiqish kuchlanishi hosil qilish rotorning o'zi **1.93** marta tezroq aylanishi kerak, statorga esa **2.13** marta tezroq aylanishi kerak.

Nazariy tadqiqotlar past potentsiilli shamol va suv oqimlarida elektr energiyasi ishlab chiqarish unumdorligini oshirishda, doimiy magnitli, kichik aylanish tezliklariga ega elektr generatorlarni tadqiq qilish zaruratini yaratdi. Kichik aylanish tezlikli elektr generator loyihalashda qutblar sonini keskin oshirish, generator diametrini oshishiga va shu orqali inersiya momentini oshirishga olib keladi.




**4-rasm. Rotori va statori bir-biriga qarama-qarshi aylanuvchi generatorlar mikroGES va SHEQlarda samarali qo'llashda konstruktiv o'lchamlarni aniqlash algoritmi.**


Shu sababli, samarador qutblar soni asosida loyihalangan elektr generator nominal aylanish tezligini yana 2 marotaba kamaytirish maqsadida elektr generatorning stator va rotorini bir-biriga qarama-qarshi harakati ta'minlanishi xulosa qilindi. Generatorlarni ishlab chiqarishda foydalaniladigan detallar shakli, joylashuvi va materiallar turini almashtirish orqali texnik va iqtisodiy ko'rsatkichlarini baholash maqsadida, Ansys Maxwell dasturining nisbatan yangi

versiyasi bo‘lgan Ansys Electronics Desktop 2022 dasturida loyihalash va simulyatsiya ishlari olib borildi. Stator va rotor materiallar turi hamda konstruktiv tuzilishi(aksial va radial oqimli) o‘zgartirilib 22 ta kompyuter modeli tuzildi.

5,6-rasmlarda tadqiqot ishida loyihalangan rotori va statori bir-biriga qarama-qarshi aylanuvchi aksial oqimli elektr generatorlarning stator hamda rotordagi moment, generatorda hosil bo‘luvchi elektr yurituvchi kuch qiymatlari keltirilgan.




**5-rasm. Statori qattiq rezinali, ikki rotorli elektr generatorda stator va rotordagi momentlar**




**6-rasm. Statori qattiq rezinali, bir rotorli elektr generatorda Elektr yurituvchi kuch hosil bo‘lishi**

Tadqiqotning keyingi bosqichida Ansys Electronics Desktop dasturida ikki rotorli 48 ta magnet qutb (har bir rotorda 24 tadan), 36 ta chulg‘amdan tashkil topgan aksial oqimli generator loyihalandi.



**7-rasm. Statori qattiq rezinali, ikki rotorli elektr generator statorida tok zichligining taqsimlanishi**




**8-rasm. Statori qattiq rezinali, ikki rotorli generator statorida magnet induksiya vektorlarining ko‘rinishi**

Elektr generatorni loyihalash to‘g‘ri bajarilganligini nazariy tadqiqot usullarida tahlil qilindi. 7-8-rasmda elektr generatordagi magnet induksiya vektorlari statorga nisbatan to‘g‘ri yo‘naltirilganligini va sator chulg‘amidagi tok zichligi to‘g‘ri tarqalganligini ko‘rish mumkin (7-rasm).


Aksial oqimli elektr generator nisbatan yangi konstruksiyali qurilmalar bo‘lib hozirgi kunda radial oqimli elektr generatorlardan foydalanish va ishlab chiqarish ham keng tarqalgan. Radial oqimli elektr generator va aksial oqimli elektr generatorlarning texnik iqtisodiy ko‘rsatkichlarini baholash maqsadida, tadqiqotning keyingi bosqichida radial oqimli elektr generatorlarni loyihalash bo‘yicha tadqiqotlar olib borildi. Doimiy magnitlardan tashkil topgan, radial o‘qli sinxron generator ham 48 ta magnet qutbli 36 ta chulg‘amli, o‘tkazgich turi va ko‘ndalang kesim yuzasi, o‘ramlar soni aksial o‘qli elektr generatordagi kabi bir xil tanlandi.

Loyihalangan modeldagi dastlabki natijalar sanoatda ishlab chiqariladigan elektr generatorlar chiqish parametrlariga yaqin ekanligini inobatga olsak, generator

to‘g‘ri loyihalangan deb xulosa qilsak bo‘ladi. Masalan, kompyuter modelidagi rotor va statori 250 ayl/min.dan aylanuvchi elektr generatorning chiqish kuchlanishi sanoatdagi mavjud 500 ayl/min tezlikda faqat rotor aylanuvchi elektr generator chiqish kuchlanishiga teng ekanligi aniqlandi. 9,10–rasmlarda kompyuter modellari orqali olingan, radial oqimli elektr generatorni rotor va statorini qarama-qarshi aylantiruvchi momentlar hamda quvvat isroflari qiymatlarning egriliklari keltirilgan.




**9-rasm. Generator statori va rotorini aylantirish uchun sarflangan mexanik quvvat**



**10-rasm. Statori qattiq rezinali, ikki rotorli elektr generatoridagi quvvat isroflari**

Magnit o‘zagi turli xil materiallardan yig‘ilgan aksial oqimli, bir rotorli elektr generatorlarning Ansys Electronics Desktop 2022 dasturidagi kompyuter modelida olib borilgan tadqiqotlarda elektr yurituvchi kuchlar taqqoslandi (11-rasm). Grafikdagi ko‘rsakichlarni ifodalovchi chiziqlar bir-biri bilan ustma-ust tushmasligi uchun har xil fazalardagi qiymatlar tanlab olingan.




**11-rasm. Magnit o‘zagi turli xil bo‘lgan bir rotorli va aksial oqimli elektr generatorlarning Ansys Electronics Desktop dasturidagi kompyuter modeli natijalari**

Natijalar tahlili shuni ko‘rsatdiki, yaxlit po‘lat o‘zakli elektr generatorlarda bir rotorliga nisbatan ikki rotorli konstruksiyada EYK qiymati 46% pastroq. Stator o‘zagi preslangan yupqa po‘lat plastinkalardan tashkil topgan generatorlarda bir rotorliga nisbatan ikki rotorli 48 % pastroq EYK qayd qilyapti. Radial oqimli konstruksiyadagi maksimal qiymat aksial oqimli bir rotorli konstruksiyadagi EYKning maksimal qiymatidan 7.2% ga ko‘p. Barcha konstruksiyalar ichida po‘lat asosli statordan tashkil topgan generatorlarda EYK qiymati nisbatan yuqoriligi sababli, keyingi tadqiqotlar aynan shu konstruksiyalarda davom ettirildi.

Quvvatni parallel va ketma-ket ravishda uzatuvchi mexanik tizimlarni tahlili asosida, parallel uzatish tizimlari ketma-ket uzatish tizimlaridan samarador ekanligi isbotlangan. Xuddi shu tizimni ikkita bir-biriga qarama-qarshi aylanuvchi shamol va gidroturbinalari uchun yoki bir-biriga qarama-qarshi aylanadigan elektr generatorga quvvat uzatuvchi shamol va gidroturbinalari uchun ham tadbiq etish mumkin. Generatorga quvvatni uzatish uchun ikkita mexanizmdan iborat bo‘lgan, momenti M1 va M2 bo‘lgan ketma-ket uzatishni ta‘minlaydigan tizim (12-rasm, a), yoki

parallel uzatishda bitta turbina (R)dan bir-biriga qarama-qarshi aylanuvchi ikkita mexanizm(GR va GS)li elektr generatorga (12-rasm, b), hamda ikkita qarama-qarshi aylanadigan turbinadan (R1 va R2) standart elektr generatoriga (G) (yoki rotor aylanishi (GR) va stator aylanishi(GS) bir-biriga qarama-qarshi aylanuvchi generator) ega bo‘lgan tizim(12-rasm, c)lar tanlab olindi.



**12-rasm. Erkinlik darajasi 1 ga teng bo‘lgan mexanizmlarning quvvatni ketma-ket va parallel uzatish sxemalari**

Bu yerda  $i_1$  va  $i_2$  kinematik nisbatlar, shuningdek,  $\eta_1$  va  $\eta_2$  mexanizmlarning samaradorligi bilan tavsiflanadi. Har bir x valda burchak tezligi  $\omega_x$  ga va momenti  $T_x$  bo‘lgan harakat uzatiladi.

Turbinadan elektr generatorining harakatlanuvchi statori yoki rotoriga uzatiladigan momentlar teng, lekin ishoraga qarama-qarshi ekanligini bilgan holda ( $T_{GS} = -T_{GR}$ ), moment  $T_G = T_{GR}$  va elektr generatorga uzatiladigan mexanik quvvat  $T_G, W_G$  teng deb qabul qilinsa:

B holati uchun uzatish samaradorligini quyidagicha hisoblash mumkin:


$$\eta_B = \frac{-P_G}{P_R} = \frac{-T_G \cdot \omega_G}{T_R \cdot \omega_R} = \eta_1 \cdot \eta_2 \cdot \frac{i_2 - i_1}{i_1 \eta_1 - i_2 \eta_2} \quad (5)$$

Umumiy xulosa sifatida, keltirilgan tenglamalar va xorijlik olimlar olib borgan tadqiqotlar xulosasiga asosan, parallel quvvat uzatishda, ketma-ket uzatishga qaraganda yuqori samaradorlikka ega ekanligini tasdiqlangan.


Hozirda mavjud, rotori va statori bir-biriga qarama-qarshi aylanuvchi elektr generatorni ko‘pgina standart turbinalarda qo‘llash imkonini cheklangan. Ya’ni bunday generatorni qo‘llash uchun 2ta turbina talab qilinadi. Bundan tashqari, rotor va stator alohida manbalardan quvvat bilan ta’minlanishi sababli aylanish tezliklari bir-biriga bog‘liq bo‘lmagan holda turli qiymatlarga ega. Shu sababli, Elektr generator stator va rotorini qarama-qarshi tomonga aylanma harakatini tezligini bir-xilligini ta’minlash maqsadida, maxsus konstruksiya ishlab chiqildi. Maxsus konstruksiya standart radial oqimli elektr generator bilan birlashtirilib bir-biriga qarama-qarshi aylanuvchi elektr generator hosil qilinadi. Elektr generator kichik tezlikli shamol va suv oqimlaridan samarali foydalanib elektr energiyasi ishlab chiqarish uchun qo‘llaniladi. Generatorni ko‘p qutbli hamda stator va rotori bir-biriga, qarama-qarshi tomonga aylana olishi shamol va gidro elektr stansiyalarda qo‘llaniladigan reduktorlarga bo‘lgan talabni keskin kamaytiradi. Tizimda reduktorlarning kamayishi kapital va yillik xizmat ko‘rsatish xarajatlarining kamayishiga xizmat qiladi. Stator va rotori bir-biriga qarama-qarshi aylanuvchi elektr generator qirqim berilgan ko‘rinishi 13–rasmida keltirilgan(FAP 2657).

Shamol yoki suv oqimi turbina orqali hosil qilingan mexanik energiya elektr generator yuqori qismidagi tishli g‘ildirak (2)ga uzatiladi. Elektr generator tepa qismidagi turbina yo‘nalishida aylanuvchi tishli g‘ildirak (2), qoplama (5) orqali

rotor (6) bilan birlashtiriladi. Natijada teskari qutbli doimiy magnitlar (7) joylashtirilgan rotor (6) turbina yoʻnalishida harakatlanadi. Val (4)da joylashtirilgan tishli gʻildirak (1), tishli gʻildirak (2) dan uzatiladigan aylanma harakatni teskari tomonga aylantirib tishli gʻildirak (8) ga uzatadi. Tishli gʻildirak (8), vtulka (10) orqali stator (11) ga ulangan boʻlib, turbina harakatiga qarama-qarshi harakatlantiradi. Aylanma harakatni taʼminlashda podshipniklar (3,9,15)dan foydalaniladi. Statoragi elekt quvvatini choʻtka (12) va kollektor (13) orqali isteʼmolchiga uzatiladi (13-rasm).




**13 a-rasm. qirqim berilgandagi uch oʻlchovli koʻrinishi**



**13 b-rasm. Elektr generator (qoplama bilan) B) qirqim berilgandagi yon tomondan koʻrinishi**

Dissertatsiya ishining “**Takomillashtirilgan radial va aksial oqimli elektr generatorni eksperimental tadqiqotlari**” nomli toʻrtinchi bobida eksperimental tadqiqotlar natijalari berilgan. Dissertatsiya ishining 3-bobi xulosalariga asosan radial hamda aksial oqimli elektr generatorlarning rotori va statori bir-biriga qarama-qarshi harakatga keltirilib tahlillar olib borildi (14-rasm).



**1-tajriba.** rotor va stator uchun, har biriga alohida, 1 ta elektr motor va 1 ta chastota oʻzgartirgich yordamida rotor va statorning qarama-qarshi harakati taʼminlandi.

**2-tajriba.** Stator hamda rotor qarama-qarshi aylanishi 1 ta elektr motor va 1 ta chastota oʻzgartirgich orqali taʼminlangan.

**3-tajriba.** Stator qoʻzgʻalmas holatda va rotorni 1 ta elektr motor va 1 ta chastota oʻzgartirgich aylantirish orqali kuchlanish hosil boʻlishi oʻrganilgan.

**4-tajriba.** Rotor qoʻzgʻalmas holatda va statorni 1 ta elektr motor va 1 ta chastota oʻzgartirgich aylantirish orqali kuchlanish hosil boʻlishi oʻrganilgan.

**14-rasm. Radial oʻqli sinxron generatorda olib borilgan tajribalar sxemasi.**

Olib borilgan tadqiqotlardan maqsad, qaysi turdagi generator nisbatan yuqori quvvat ishlab chiqaradi, ya'ni, quvvat zichligini aniqlash edi. Bundan tashqari, stator va rotorni bir tomonlama hamda rotor va statorni bir-biriga qarama-qarshi tomonga aylantirganda kuchlanish, chastota hosil bo'lishini tahlil qilishdan iborat. Tanlangan elektr generatorning statorining massasi 16.3 % ko'p, rotor diametрни tabiiyki 9% ko'p. Massalar teng emasligi hamda diametrdagi farqlar tufayli aylanish va inersiya momentlari farq qiladi.

Tajriba natijalari tahlili asosida rotor diametri katta bo'lganiga qaramay, statorning massasi 13% ga katta bo'lganligi sababli, statorga quvvat kichik aylanish tezliklari 28%, katta aylanishlarda (nominal tezlikga yaqin tezliklarda) esa 12-13% ko'p sarflangan.



### **15-rasm. Radial oqimli, rotori va statori bir-biriga qarama-qarshi aylanuvchi generatorlarda o'tkazilgan tajribalar jarayoni.**

Tajriba natijalaridan xulosa qiladigan bo'lsak, agar mexanik energiyani elektr energiyasiga generatsiyalash jarayonida stator va rotor aylanish tezliklarini bir xilligini ta'minlash kerak bo'lsa, stator uchun kattaroq ishchi yuzali turbina tanlash kerak bo'ladi. Necha foizga katta ishchi yuzali turbina tanlashni aniqlash uchun  $K_{ynk}$  – yuzalar nisbati koeffitsiyenti deb nomlangan ko'rsatkich kiritamiz. Bu koeffitsiyent katta tezliklarda ya'ni generator nominal tezligiga yaqin tezliklarida o'rinli. Chunki past aylanish tezliklari generatorni tinch holatdan qo'zgatish uchun ko'p energiya sarflanadi.

$$K_{ynk} = \frac{A_s}{A_r}; \quad (6)$$

bu yerda:  $A_s$ -statorni harakatga keltiruvchi turbina yuzasi;  $A_r$ -rotorni harakatga keltiruvchi turbina yuzasi.

Yuzalar farqini yanada aniqroq asoslash maqsadida, dissertatsiya ishida  $K_{1V}$  – solishtirma kuchlanish hosil qilish koeffitsiyenti deb nomlangan ko'rsatkich keltirildi. Bu koeffitsiyent ayniqsa, kichik tezliklarda ahamiyatli hisoblanadi. Chunki past aylanish tezliklari generatorni tinch holatdan qo'zgatish uchun ko'p mexanik energiya sarflanadi.

Stator va rotorga alohida o'rnatiladigan turbinalarni tanlashda turbinaning yuzalar nisbati koeffitsiyentini, solishtirma kuchlanish hosil qilish koeffitsiyenti ( $K_{1V}$ ) orqali aniqlash uchun:

1. Generator faqat statorini aylantirish orqali, 1 V kuchlanish ishlab chiqarish uchun sarflangan quvvat ( $P_{1V.st}$ ) aniqlandi;


2. Generator faqat rotorini aylantirish orqali, 1 V kuchlanish ishlab chiqarish uchun sarflangan quvvat ( $P_{1V.rt}$ ) turli tezliklarda aniqlandi;

Keyingi bosqichda, generator statorini aylantirish orqali 1 V kuchlanish ishlab chiqarish uchun sarflangan quvvat ( $P_{1V.st}$ ) ning, generator faqat rotorini aylantirish orqali 1 V kuchlanish ishlab chiqarish uchun sarflangan quvvat ( $P_{1V.rt}$ ) ga nisbati ( $K_{1V}$ ) turli tezliklardagi qiymati aniqlandi. Keltirilgan natijalarning o'rtacha qiymati ( $K_{1V.o'rt}$ ) topildi.

Solishtirma kuchlanish hosil qilish koeffitsiyenti ( $K_{1V}$ ) va uning o'rtacha qiymatini ( $K_{1V.o'rt}$ ) quyidagicha aniqlanadi:

$$K_{1V} = \frac{P_{1V.st}}{P_{1V.rt}}; \quad K_{1V.o'rt} = \frac{\sum_1^n K_{1V}}{n} \quad (7)$$

**Radial oqimli elektr generatorda  $K_{1V}$  ni aniqlash.**



